











Toshkent viloyati, Chirchiq shahri
Amir Temur ko'chasi 15
Chirchiq OTQMBY
Tel: 70-716-50 50, 48-40
Faks: 70-716-50-07
Email: chirchiqotqmbyu@gmail.com

CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTI

# ZIRHLI QALQON

ilmiy–axborot jurnali
№ 24 (38) 2024-yil dekabr





Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

*Sh.Mirziyoyev*
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*
*Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni*

В военном обучении и научно-учебных сферах, также в сфере подготовки кадров мы должны тщательно стараться совмещать с практикой.

*Ш.Мирзиёев*
*Президент Республики Узбекистан,*
*Верховный Главнокомандующий*
*Вооруженными Силами*

Consistent implementation of the reforms initiated in the system of military education and science, special attention should be paid to bringing theory and practice as close as possible to training personnel for the field.

*Sh.Mirziyoyev*
*President of the Republic of Uzbekistan,*
*Commander-in-Chief of the Armed Forces*

ZIRHLI QALQON
ILMIY – AXBOROT JURNALI
№ 24 (38) 2024- yil dekabr



**TAHRIR HAY’ATI**

**Bosh muharrir** - bilim yurti boshlig‘i, dotsent, polkovnik Shavkatbek Xusanbayevich Mamajonov.

**Mas’ul muharrir** - bilim yurti boshlig‘ining o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, h.f.d. (DSc), professor, polkovnik Sobirjon Sayipjanovich Abdurayimov.

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

Bilim yurti ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Shamudinov Sharafiddin Kamalovich;

Ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo‘limi katta ilmiy xodimi h.f.d. (DSc), k.i.x., QK xizmatchisi Sultanov Denis Igamberdiyevich;

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i p.f.f.d. (PhD), mayor Raximov Farrux Boltayevich;

MV XHX BB boshlig‘ining o‘rinbosari s.f.f.d. (PhD), polkovnik Usmonov Sirojiddin Safarovich;

Bilim yurti ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, f.f.f.d. (PhD), kapitan Ishpo‘latov Inoyat Saparovich;

O‘zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti Ispan tili amaliy fanlari kafedrasi mudiri, fil.f.d. (DSc), professor Baxronova Dilrabo Keldiyarovna;

Fag‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi f.f.f.d. (PhD), Buzrukova Dilorom Mamirxonovna;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi mudiri k.f.n, dotsent, QK xizmatchisi Vorisova Ra’no Sobirovna;

Umumtexnik fanlar kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Yunusov Baxtiyor Abdullayevich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi professori, k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Hamroqulov G‘ofurjon Begimqulovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasi professori, t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Matmurodov Farxod Matqurbonovich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), dotsent, QK xizmatchisi Ramonova Sadoqat Qomilovna;

Qo‘shinlar kundalik faoliyati va qo‘shinlarni boshqarish kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Nigmatov Zafarjon Zokirovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Gapparov Shokir Xasanovich;

Quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi katta o‘qituvchisi t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Savriddinov Nukritdin;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Ulashov Jaxongir Zayniddinovich;

Tillar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Rahmonqulova Dilshoda Murodqoziyevna;

Tillar kafedrasi o‘qituvchisi Juraboyeva Moxidil Maxmadaliyevna;

Chirchiq DPU kafedra dotsenti, Saitkulova Nazokat Raxmonovna;

O‘R Jamoat xavfsizligi universiteti Qo‘riqlashni muhandislik – texnik ta’minlash kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, t.f.f.d. (PhD), polkovnik Xursandov Elyor Dustbekovich;

Gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari p.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik Xasanboyev Bekzod Valijonovich;

O‘R QK Akademiyasi Harbiy razvedka kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Gilyajdinov Rafael Talgatovich;

Bilim yurti Texnik ta‘minot kafedrasi o‘qituvchisi t.f.d. (DSc), dotsenti, kapitan Xurramov Akbar Ilhomovich;

O‘R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy tadqiqot instituti ilmiy axborotlar bo‘limi boshlig‘i, h.f.f.d. (PhD), k.i.x, podpolkovnik Raxmatbayev Ravshan Jumabayevich.

**Mas’ul kotib** – Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Raxmanov Sayfiddin Jo‘raboyevich.

Texnik dizayner - Axborotlashtirish va multimedia markazi boshlig‘i, katta texnik II - darajali serjant Abduraxmonov Voxitjon Musalimxonovich

Mazkur jurnal bilim yurtining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining
2021-yil 4-iyun kunidagi № 300/5 qaroriga asosan harbiy, pedagogika, siyosiy va tarix fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan ilmiy-axborot jurnalidir.

Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi kuch tuzilmalari tasarrufidagi hamda boshqa vazirlik va idoralarning oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorant, mustaqil izlanuvchilari, magistrlari, tinglovchilari, kursantlar va qo‘shinlar ofitserlari tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalari kiritilgan.

Jurnaldagi maqolalarda Qurolli Kuchlarning qurilishi va isloh qilinishi, pedogogika va fandagi innovatsion yondashuvlarning turli jihatlari yoritiladi.

Jurnaldagi maqolalardan to‘liq yoki qisman foydalanilganda “Zirhli qalqon” ilmiy-axborot jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar shaxsan mas’uldir.

Jurnalda chop etilgan maqolalar bo‘yicha taklif va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Indeks: 111715, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri Amir Temur ko‘chasi - 15, Chirchiq OTQMBY.

Tel.: (+99870) 716-50-50. Faks: (+99870) 716-50-07. E-XAT: kanselyariya.chvtkiu@exat.uz.

© O‘R Mudofaa vazirligi, Chirchiq OTQMBY nashriyoti 2024-yil dekabr Jurnal 408 bet (204 varaq) dan iborat.

# MUNDARIJA

## TA'LIM VA TARBIYA

**BAYXANOV M.B.** Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarni fanga qiziqishini oshirish usullari ………… 4
**SHUKUROVA G.T.** Harbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini oʻqitish usullari: kompetensiyalarni rivojlantirishga kompleks yondashuv ………… 9
**SHERMATOV B.B.** Pedagogik kasbiy mahorat samaradorligini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari ………… 14
**RAJABOV R.R.** Ta'lim oluvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bosqich va usullari ………… 17
**ISMANOV K.I.** Kursantlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmi ………… 21
**NISHONBOYEV M.X.** Harbiy pedagogika zamonaviy muammolari va ularning istiqbolli yechimlari ………… 25
**TEMIROVA N.A.** Ingliz tilidan ketma-ket tarjimaga oʻqitishda tarjimaning lingvistik va kognitiv jihatdan tarjima oldi tayyorgarlik metodlari ………… 30
**VOXOBOV N. Gʻ.** Boʻlajak ofitserlarning profayling kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar ………… 35
**RAXIMOV S.K., XALILAYEV B.T.** Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash mexanizmlari ………… 40
**RAXMATOV J.X. JOʻRAYEV R.R.** Ofitser-pedagogning faoliyatida kreativlik ………… 43
**RAXMONOV N.B.** Harbiy pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlash sifatini takomillashtirish va malakasini oshirish modeli ………… 46
**XOLBOYEVA SH.A.** Elektron adabiyotlarga moʻljallangan ilovalar "mutolaa", ijtimoiy tadbirlardan foydalanib oʻquvchi-yoshlarning kitobxonlikka qiziqishini shakllantirish ………… 49
**АЛИМОВ М.М.** О современном процессе формирования профессиональной культуры военнослужащих на занятиях по огневой подготовке ………… 53
**TURGUNBAYEV N.T.** Pokiston maxsus operatsiya kuchlariga nomzodlarni saralashning oʻziga xos tajribalari 58

## NAZARIYA VA AMALIYOT

**NASRIDDINOV K.Y.** Desantchining parashut bilan sakrashda qoʻnish qoidalarining buzilishi va ularni kelib chiqish sabablari ………… 63
**FAYZIYEV Z.X.** Zamonaviy qurolli toʻqnashuv va mojarolarda artilleriya razvedkasini olib borish va artilleriya otishiga xizmat koʻrsatish tajribalari ………… 68
**DUSTOV A.G. IBRAGIMOV J.U.** Zamonaviy harbiy mojorolarda artilleriyaning oʻrni va roʻli ………… 72
**XURSANDOV E.D., ESHMURADOV Z.M., RAXMANOV S.J.** Rivojlangan davlatlarning harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatni yuksaltirishda sun'iy intellektdan foydalanish tajribasi ………… 78
**АЛИМОВ М.М.** О методологии развития профессиональной культуры у курсантов высших образовательных учреждений ………… 85
**XUSANOV Z.T.** Axborot xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi ………… 90
**GAIPOV R.A.** Harbiy xizmatchilarni harakatlanuvchi nishonlarga qarata samarali oʻq otish koʻnikmalarini shakllantirish masalalari ………… 95
**XAMROYEVA L.X., ABDURAMANOVA D.V.** The role of mythology in modern fantasy literature ………… 100
**MAXAMADIYEV Z.SH.** Doimiy jangovar shay brigadalarda merganlarni saralab olishning mezonlari va takomillashtirilgan usullari ………… 103
**ЗИЁДУЛЛОЕВ Ш.Н.** Махсус бўлинма ҳарбий хизматчиларини замонавий жанг шароитидан келиб чиққан ҳолда ҳаракат тактикаларини такомиллаштиришнинг айрим жиҳатлари ………… 107
**MAJIDOV A.T., NIYOZOV S.Oʻ.** Rossiya ва ukraina oʻrtasida qurolli toʻqnashuvning oʻziga xos xususiyatlari . 117
**KENPEILOV R.N.** Respublikamiz va xorijiy davlatlarning jazoni ijro etish muassasalarida qoʻllaniladigan muhandislik texnik qoʻriqlash vositalari: qiyosiy tahlil ………… 121
**PARPIYEVA A.J., BABAJANOVA A.T.** Rezervuardagi yoqilgi hajmini monitoring qilish qurilmasining sxemasini ishlab chiqish ………… 125
**POʻLATOV I.M.** Zamonaviy jangovar harakatlarda olov otuvchi boʻlinmalarining qoʻllanilish taxlili ………… 129
**PARPIYEVA A.J., TAJIYEV J.A., MAXMUDOV N.A.** Rezervuarlardagi neft mahsulotlarining oʻzgaruvchi parametrlarini avtomatik qurilma yordamida oʻlchash va matematik tahlili ………… 134
**ИЗБОСАРОВ А.Ф., УРМАНОВ Б.Б., ЯХЁЕВ А.А.** Авиация жанговар бошқарувидаги ҳаво радиоалоқа тармоқларида узатилаётган трафикларни интенсив адаптация қилиш усулида самарадорлигини ошириш 138
**KOBILOV J.S.** Radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza boʻlinmalarining qoʻshinlarini aerazol (tutun)lar bilan niqoblash boʻyicha imkoniyatlarini aniqlash tartibi ………… 144

## TARIX VA BUGUN

**ORTIKOV A.K.** Amir Temur harbiy san'atining oʻziga xos jihatlari ………… 153
**TUXTAMURODOV A.A.** Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning artilleriyani qoʻllashga oid tajribalari 157
**ISHPULATOV O.J.** Ikkinchi jahon urushi hujum operatsiyalarida artilleriyani jangovar qoʻllash tajribasi ………… 163
**FARMANOV M.G.** Smart armiyaning boshqaruv tizimini ta'minlashda telekommunikatsiyalarning rivojlanish istiqboli …. 170
**MUZAFFAROV Z.Q.** XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi qoʻshinlarida jangovar tayyorgarlikning tashkil etilishi … 175
**AKOBIROV M.H.** Sulton Jaloliddin Manguberdining arab xalifaligi bilan diplomatik aloqalari ………… 180
**AXMADALIYEV R.M.** Fransiyada zirhli tank qurollarining yaratilish va rivojlanish tarixi ………… 185
**XODJIXODJAYEV F.M.** Zamonaviy qurolli toʻqnashuvlarda "okop jangi"ning ahamiyati va uning retrospektiv rivojlanishi ………… 189

**NAJIMOV M.M.** Sulton Jaloliddin Manguberdi harbiy san’ati: strategiyasi va qo‘shin tarkibining qiyosiy tahlili .... 195

**OCHIQ BAHS VA MUNOZARA MINBARI**

**SHARIPOV L.H., JUMANIYOZOV F.A.** Rossiya ukraina o’rtasidagi urushda artilleriya bo’linmalarining kontrbatareya kurashi tahlili ........ 200
**TAJIYEV J. A., RO‘ZIYEV Sh. Yu.** Zamonaviy qurolli mojarolarda artilleriya bo‘linmalarida texnik ta’minotini avtomatlashtirish ........ 205
**НОСИРОВ У.И.** Бронированные машины для противодействия современным планам вероятных действий противника (БМПТ демонстрируют новые направления разработки) ........ 210
**НАЗАРОВ А.Н.** Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиёда минтақавий хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш борасидаги фаолияти ........ 220
**ХОМИДОВ В.Д.** Реабилитация тушунчаси ва мазмунига оид айрим фикр ва мулоҳазалар ........ 224
**АХУНОВ Р.Н.** О модернизации системы подготовки войск к вооруженной борьбе в городском пространстве ........ 227
**DJABBAROV T. M.** Perimetrli qo‘riqlash ........ 231
**XAMROYEVA L.X. ABDURAMANOVA D.V.** Language acquisition in bilingual children: a comparative study .... 235
**RO‘ZIYEV Sh.Yu.** Avtomatlashtirilgan artilleriya olovini boshqaruv tizimida ma’lumotlar almashuvini ta’minlovchi algoritmni ishlab chiqish ........ 238
**TOJIYEV J.A.** Uchuvchisiz uchish apparatlarining optimal qidiruv va navigatsiya algoritmlari ........ 243
**RAXMANOV A.X.** Muhandis-texnik vositalarning jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati .... 247
**SHOXAKIMOV A.R.** Ijtimoiy himoya – yuksak jangovar ruh omili ........ 250
**ОТАБАЕВ А.К.** Марказий осиё давлат раҳбарларининг “маслаҳат учрашувлари” – хавфсизликни таъминлаш механизми сифатида ........ 255
**ELOV A.A.** Global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish va unga moslashish sohasida davlat siyosatining konstitutsiyaviy asoslari ........ 261
**PARPIYEVA A.J., TAJIYEV J.A.** Rezervuarlardagi yoqilgi hajmini o‘lchash modelini ishlab chiqish ........ 266
**НОСИРОВ У.И.** Техническое диагностирование составная часть процесса то и ремонта ........ 272
**XALIMOV E.X., RAXMANOV S.J.** Harbiy-amaliy fizika mashg‘ulotlarida zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanib bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi ........ 276
**ЖУМАЕВА Ш.Б.** Ёшларни ватанпарварлик рухида тарбиялашда муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг аҳамияти ........ 282
**РАҲМОНҚУЛОВА Д.М.** Курсантларга немис тилида ҳарбий терминологияни ўрганишга мўлжалланган лексик машқлар системаси ........ 287
**XAQNAZAROV X.D.** Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги тадкикотлар ва уларнинг тарихий аҳамияти ........ 293
**ПЕТРЯНИН С.А.** О перспективах иновационной подготовки курсантов на занятиях по борьбе самбо ... 299
**KAMOLOV X.B.** Qo‘shinlarning maxsus harakatida uchuvchisiz uchish apparatlarini jangovar qo‘llash tajribalari ........ 303
**ШАМУДИНОВ Ш.К.** Проблемы и перспективы развития вооружения и военной техники ........ 307
**XUSAINOV D.X.** Chet davlat zalp otuvchi reaktiv artilleriya tizimlarini rivojlanish tendensiyasi ........ 313
**DUSBOYEV A.T.** Tungi mashg‘ulotlar davomida mashg‘ulot rahbarining axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirishdagi roli ........ 319
**YO‘LDOSHOV O.I.** Искусственный интеллект и водородный двигатель (проект южнокорейской «арматы» от hyundai) ........ 324
**SHOYIMOV I.Q., AXMEDOV B.M.** Zamonaviy o‘qitish usullari ........ 329
**USMANOV R. M.** Kursantning agressiv va psixologik qiyofasi ........ 335
**TO‘RAYEV G‘.T.** Zamonaviy harbiy mojarolarda “okop va tunnel janglari”ni olib borilishining o‘ziga xos hususiyatlari . 338
**АБДУРАХМАНОВ Х.Д.** Основы боевого применения артиллерии в операциях локальных войн и вооруженных конфликтов ........ 344
**ХАЛМУХАМЕДОВ Д.** Жамоат хавфсизлигини таъминлашда хорижий тажрибаларнинг ўзига хос хусусиятлари .... 349
**ХАЛМУХАМЕДОВ Д.** Янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг концептуал асослари ........ 355
**DJURAYEV N.A.** O‘zbekistonning barqaror taraqqiyot yo‘lida erishgan yutuqlar dinamikasi ........ 360
**ABDURAXIMOV U.A.** Cho‘l hududida mudofaa jangini tayyorlash va olib borishning ayrim jihatlari (olib borilgan harbiy mojarolar tajribasidan) ........ 367
**MIRAXMEDOV A.R.** Toifalangan obyektlarda vidiokuzatuv kameralaridan samarali foydalanish va ularning ish samaradorligini oshirishda optimallashtirishning ahamiyati ........ 372
**XAITOV DJ.E.** Xorij davlatlar armiyasida psixologik bilim berish tajribalari ........ 380
**АБДУРАХМАНОВ Х.Д.** Применение артиллерии в общевойсковом бою соединения ........ 383
**ШЕРМАТОВ А.Ф.** Kundaklik faoliyatda uchuvchisiz uchish apparatlarni foydalanishning ahamiyati va zaruriyat darajasi haqida ........ 389
**ХАЛИЛОВ Ш.Э.** Роль физической подготовки курсантов института военной авиации ........ 393
**YARMATOV A.N.** Vatan tayanchi” otryad a’zolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda madaniy merosning o’rni 397
**TURG‘UNBOYEV B.I.** Havo hujumidan mudofaa vositalarini modernizatsiya qilishda o‘ziyurar zenit qurilmasi ZSU-23-4M „ShILKA“ ni o‘rni ........ 401

**“Zirhli Qalqon”** ilmiy-axborot jurnaliga maqolalarni nashr ettirish uchun qo‘yiladigan talablar ........ 407

# ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

**ЖУМАЕВА Ш.Б.**
ЧДПУ Гуманитар фанлар факультети “Тарих” кафедраси доценти

**Аннатоция:** Мазкур мақолада юртимиздаги муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳлариниг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти ёритиб берилган. Шунингдек, глобаллашув даврида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбилаш долзарб масала сифатида таҳлил этилиб, бу борада ўзбек халқининг асрлар давомида шаклланган қадрият ва анъаналари зиёратгоҳлар мисолида ёритиб берилган.
**Калит сўзлар:** Марказий Осиё, туризм, зиёратгоҳлар, қадамжо, анъана, қадрият, глабаллашув жараёнлари, тарбия, ватанпарварлик, меҳнатсеварлик, ҳалоллик, зиёрат маросимлари, миллат, қадрият, оммавий маданият, глобаллашув.
**Аннотация:** В данной статье раскрыта значимость священных мест и объектов паломничества нашей страны в воспитании молодежи. Также анализируется актуальность воспитания молодежи в духе патриотизма в условиях глобализации. На примере объектов паломничества освещены ценности и традиции узбекского народа, сформировавшиеся на протяжении веков.
**Ключевые слова:** Центральная Азия, туризм, объекты паломничества, священные места, традиции, ценности, процессы глобализации, воспитание, патриотизм, трудолюбие, честность, обряды паломничества, нация, массовая культура, глобализация.
**Abstract:** This article highlights the importance of sacred sites and pilgrimage objects in our country in the upbringing of youth. It also analyzes the relevance of fostering patriotism among young people in the context of globalization. Using pilgrimage sites as an example, the article explores the values and traditions of the Uzbek people that have been shaped over centuries.
**Keywords:** Central Asia, tourism, pilgrimage sites, sacred places, traditions, values, globalization processes, upbringing, patriotism, diligence, honesty, pilgrimage rituals, nation, mass culture, globalization.

Юртимиз келажаги, тинч ва осуда ҳаёт кечиришимиз, озод ва обод ватанда фаровон яшашимиз ҳар томонлама ёшларга боглиқ. Ёшларнинг қандай инсон бўлиши эса уларга берилаётган таълим-тарбияга натижасидир. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда ёшларни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш, маънавий етук ва жисмонан соглом баркамол авлодни вояга етказиш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасида муайян ишлар амалга оширилди. Юртимизда ёшларга, баркамол авлодга берилаётган эътибор, уларга давлат томонидан кўрсатилаётган гамхўрлик доираси йилдан-йилга кенгайиб бормоқда. Ёшлар сиёсати давлат аҳамиятига молик сиёсат деб қаралиб, бу борада давлат дастурлари ишлаб чиқилиб, ижрога қаратилди. Бугун ёшларимиз томонидан эришилаётган улкан ютуқлар замирида истиқлолнинг илк йилларидан бошлаб ёшлар тарбияси, таълими, умуман кадрлар тайёрлаш тизимида амалга оширилган ислоҳотлар мужассам [1].

**Тадқиқот усуллари.** Тадқиқот объекти – Марказий Осиё худудида жойлашган муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳлар.

Мавзуни тадқиқ этиш жараёнида қиёслаш, тизимли таҳлил, тавсифийлик, тарихийлик, тарихий-қиёсий таҳлил усуллари қўлланилган.
Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси ва Қозогистон Республикаси (Туркистон, Сайрам ва Чимкент) худудларида 2018-2024 йиллар давомида олиб борилган дала тадқиқотлари материалларидан фойдаланилди.

Мавзуни ёритишда муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳлар тўғрисида тарихий-меъморий, археологик, этнологик ҳамда диншунослик нуқтаи назаридан умумлашган маълумотларни ўзида мужассам этган адабиётлардан кенг фойдаланилди. И. Останақул (2001), Н.У.Абдулаҳатов, Б.Ҳошимов (2000), Н.У.Абдулаҳатов, Азимов О., Ҳайдарова З. (2002) ва шарқшунос К.Мўминовлар (2003), Ртвеладзе Э., Ртвеладзе А

(1991) каби тадқиқотчилар томонидан яратидган адабиётлар, монография ҳамда илмий мақолаларда берилган илмий маълумотлар асосида мавзу таҳлил этилди.

**Натижалар.** Қадимдан доно халқимиз ёшлар тарбиясига алоҳида эътибор билан ёндашишган. Айниқса ватанга муҳаббат, она юртига содиқлик, ватанпарварлик каби туйғуларни шакллантириш тарбиянинг энг муҳим жиҳати ҳисобланиб, бундай туйғуларни ёш авлодда шакллантиришда учун турли восита ва усуллардан фойдаланилган.

Жумладан, халқимизнинг буюк тарихи, аждодларимизнинг донишмандлиги, бетакрор маданий ва манавий меросимиз–ватанга муҳаббат, садоқат ва ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда асосий манба ҳисобланади. Ана шундай тарбия ўчоқларидан бири асрлар давомида шаклланган, ўзбек халқининг миллий қадриятларидан бири зиёратгоҳлар ҳисобланади. Зеро, миллий маънавиятимизни азал-азалдан эъзозлаб келинаётган муқаддас зиёратгоҳларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Чунки, зиёратгоҳлар кишилар онгида эзгулик манбаи, ҳар бир инсонни меҳр–мурувватга чорловчи, туғилиб ўсган жойига, ватанига меҳр ва ифтихор туйғуларини уйғотувчи  муқаддас жой  вазифасини ҳам ўтаб келган. Ўз навбатида эса ҳар бир оиладаги фарзандлар ёшлигидан зиёратгоҳларга ижобий муносабатда бўлиш руҳида тарбияланган [2].

Келажак авлодларимизга шу муқаддас замин тарихи, унинг азизлигига сабаб бўлган буюк зотлар ҳақида маълумот етказиш–содиқ ва фидоий инсонларни тарбиялашнинг муҳим омилидир. Бинобарин, тарихини, авлоду аждодини, наслу насабини англаш инсон ички дунёсини бойитади. Ватан ва миллат шаънига доғ тушурувчи ярамас иллатларга мойиллашувнинг олдини олади. Тафаккур оламини кенгайтириб, тубанликдан огоҳ этади [3]. Глобаллашув жараёнлари тез суръатлар билан кетаётган бугунги кунда ёшлар тарбияси янада долзарб қиёфа касб этмокда. Айниқса, "оммавий маданият" таъсирида миллий қадриятлар, миллий ўзликни англаш ва ватанпарварлик каби асрий анъана қадрсизланиб бормоқда.

Бугунги кунда юртимизда жами 7 минг 476 моддий маданий мерос объекти давлат муҳофазасига олинган бўлиб, шундан 4 минг 308 таси археология ёдгорлиги, 2 минг 79 таси архитектура ёдгорлиги, 694 таси монументал санъат ёдгорлиги, 395 таси эса диққатга сазовор жой саналади.

**Муҳокама.** Зоҳиран, юртимизнинг табиий бойликлари кўзларни қанчалар севинтирса, маънавий бисоти ботинан ифтихор ва ҳавас туйғуларини уйғотади. Истиқлол йилларида Президентимиз раҳнамолигида мамлакатимизда маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш борасида изчил ишлар олиб борилди, ушбу соҳадаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари белгилаб олинди ва амалга оширилмоқда. Бунда маданий мерос объектларини муҳофаза қилишга, уларни қайта таъмирлаш-тиклаш ишларига, маданий мерос объектларини имкон қадар асл кўринишида сақлаб қолишни таъминлашга, уларни умуминсоний қадриятлар билан уйғунлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қадимдан муқаддас жойларни зиёрат қилиш кишилар руҳиятига катта таъсир кўрсатган. Кишиларнинг хулқ маданиятини юксак савияда бўлишида муқаддас зиёратгоҳлар муҳим аҳмият касб этган. Зеро, муқаддас жойларни зиёрат қилиш одамларни ҳаром-ҳариш йўллардан узоқ юришга, инсофли, диёнатли бўлишга, ўзидан фақат яхшилик қолдириш сингари хайрли ишларга ундаб келган. Уларда тарбия, ахлоқ, одаб, ўзаро дустона муносабатлар, қариндошлик, ота-она ва фарзандлар

ўртасидаги муносабатларнинг янада қалинлашувига замин яратган. Шу сабабли халқимиз миллий қадриятларида зиёратга бориш оилавий анъана тарзида сақланиб қолган.

Авлиёлар Аллоҳнинг берган иноятлари – олдиндан кўра олиш, даволаш каби хислатларга эга бўлишсада, ҳалол меҳнат билан кун кўришни афзал билганлар. Ҳадисларда қайд этилган “Ҳалол касбдан чарчаб ухлаган одам гуноҳлари кечирилган ҳолда тунайди”. Жумладан, шайх Маҳмуд Анжир Фагнавий ҳазратлари нажжорлик ва тижорат билан шуғулланар эди. “Бизнинг йўлимизда хирқа эмас, ҳирфа (касб) муҳимдир” деб ҳунарсизларни ўз тариқатига қабул қилмаганлар. Ўз ҳунарини ривожлантириш борасида кўп ишлаб, Маҳмуд Анжир Фагнавий Бухорода “руҳ гўзаллиги” (қаддасаллоҳу сирраҳу) унвонига эга бўладилар, ёгоч меъморчилигини санъат даражасига кўтарган [4].

Авлиёларнинг таърифи, уларнинг амаллари, муомила ва риёзатлари ҳақида сўзланган Алишер Навоийнинг “Насойимул-муҳаббат” тазкирасида авлиёларнинг касблари ҳақида маълумотларни келтириб ўтган. Тазкирада келтирилишича, Шайх Абу Саид Харроз ва Шайх Хожа Абдуллоҳ Ансорий этикдўз, Шайх Муҳаммад Саккак пичоқчи, Шайх Абу Ҳафз Ҳаддод темирчи, Шайх Абу Бакр Хаббоз новвой, Шайх Абдулаббос қассоб, Шайх Иброҳим Ожурий гишт пиширувчи, Амирчаи Сафолфуруш кулол, Шайх Абулҳасан Музаййин ва Шайх Баннонлар ҳаммол, Шайх Абулхасан нажжор касби билан шуғулланганлар [5].

Муқаддас мозорлар ва улар билан боглиқ муқаддас буюмлар ҳақидаги қарашлар асрлар давомида бирга яшаб келаётган туркий халқларнинг диний ҳиссиётларининг шаклланишида муҳим аҳамият касб этган. Шу сабабли Марказий Осиё халқлари орасида орасида азалдан улуг мозорларни зиёрат қилиш ярим ҳаж қилиш баробар сифатида қараб келинган. Жумладан, Самарқанддаги Қусам ибн Аббос қабрини зиёрат қилиш Каъба зиёрати билан тенглаштирилган. Шу сабабдан зиёратчилар Каъба атрофида етти марта айланганларидек, бу мозор атрофида етти бор айланганлар. Хуросонда эса Имом Ризо мозори, Қозогистонда Хожа Аҳмад Яссавий мақбарасини зиёрат қилиш ҳаж билан тенглаштирилган [6].



**1-расм.** Амир Темур мақбараси. (Самарқанд)



**2-расм.** Ислом Каримов мақбараси

**Хулоса**. Таниқли олим Ғайбулла ас-Салом таъкидлаганларидек, “Юртимиз шундай муқаддас маконки, қаерида юрмагин, қадамингни эҳтиёт бўлиб ташлашинг керак: чунки унинг ҳар бир тоши ёки кесаги буюк бир зотнинг хоки бўлиши мумкин!”

Қадимда “Турон”, “Мовароуннаҳр” деб улуғланган, ўтмишда “Туркистон” деб қадрланган ва ҳозирда “Ўзбекистон” номи дунёга машҳур мамлакатимизда кўплаб табаррук зотларнинг қабрлари, қадамжо ва зиёратгоҳлари мавжуд. Асрлар давомида халқимизнинг ҳурмат ва эътибори билан бу масканлар муқаддас зиёратгоҳ даражасида эъзозланиб келмоқда. Бу ихлос авлоддан авлодга етказилганлиги боис даврлар, замонлар ва сиёсатлар тазйиқ ҳамда қатагонлари қанчалик раҳна солмасин, уларнинг зиёрати ҳанузгача давом этмоқда. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда муқаддас масканлар, тарихий обидаларга ташриф уюштириш ёш авлодда ўз авлод аждодларига ҳурмат, ўзлигини англаш, насл-насаби билиш билан бир қаторда ўзига нисбатан ишонч, миллий гурур, туғилиб ўсган жойига ҳурмат, ватанига муҳаббат туйгуларини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Айниқса, бугунги глобаллашув шароитида баъзи бир ёшларимиз ўз тарихини яхши билмаслик туфайли ота-боболари, аждодлари тарихий мероси, урф-одатлари ва маданиятидан узилиб колаётгани, охир-оқибатда улар ўртасида турли кучлар таъсирига тушиб қолиш хавфи кучайиб бораётгани кузатилмоқда. Айрим носоглом кучлар, гуруҳлар ва оқимлар тарихни маънавий ва мафкуравий қуролга айлантириб, ўз манфаати йўлида зарарли гояларни ёйишга уринаётганлиги сир эмас. Оммавий маданият таъсирида миллий қадриятларимиз унитилмоқда. Шу боисдан ҳам ҳозирги мураккаб даврда ватанпарварлик туйгусини шакллантириш, умуминсоний ва миллий қадриятларни сақлаб қолиш, буюк аждодларимиз қолдирган бой меросни асл ҳолида англаб етиш, турли мазҳаблар, оқимлар ва йўналишлар таъсирига берилмаслик орқали “урушсиз дунё” ва осойишта ҳаётга эришиш тинчликсевар кучлар, халқлар, миллатлар ва элатларнинг бош мақсадига айланган. Ва бу мақсад йўлида миллати, динидан қатъий назар якдиллик билан ҳаракат қилиш лозим. Зеро, бугунги кун ёшларимиз тарбияси, эртанги кунимизни белгилаб берувчи асосий мезон ҳисобланади.

**Фойдаланилган манбалар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги ПҚ-3514-сонли “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўгриси”ги қарори.
2. Н.Абдулаҳатов, Ў.Эшонбобоев “Кўҳна Маргилон зиёратгоҳлари”-Фаргона-2007.
3. С.М.Нуротоий, М.Аблаев “Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси”-Тошкент-2015.
4. С.Сайфуллоҳ. Хожагон – Нақшбандия.-Тошкент. “Oʻzbekiston” НМИУ, 2020.Б.–29.
5. Иманалиев К. Кыргызстан: национальный путь (в поисках самоидентификации). Бишкек, 2009.
6. “Тарихий хотира ва мустақиллик”-Тошкент-2016.